

## TURLI MUDDATLARDA EKISHNING O'RTA VA INGICHKA TOLALI G'O'ZANING UNIB CHIQISH DINAMIKASIGA TA'SIRI

**Boltayev Saydulla Maxsudovich**

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
professori., q.x.f.d.*

**Xolmuminov Sherzod Xolnazarovich**

*Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot  
institutining 3- bosqich tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** *Respublikamizda o'tloqlashib borayotgan taqir tuproqlar sharoitida o'rta va ingichka tolali g'o'za navlarini turli muddatlarda ekish g'o'za navlarining tuproq va iqlimning har xil salbiy ekstremal sharoitlariga bardoshlilikini va ularning o'suv davridagi ta'sirlari o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** *ingichka va o'rta tolali g'o'za navlarini, ekish muddatlari, o'sish-rivojlanish, mineral o'g'itlar me'yorlarini ishlab chiqish.*

**Аннотация.** *В условиях пастбищных почв нашей республики при посевах средне- и тонковолокнистых сортов хлопчатника в разные сроки изучена устойчивость сортов хлопчатника к различным негативным экстремальным почвенно-климатическим условиям и их влияние в течение вегетационного периода.*

**Ключевые слова:** *создание тонковолокнистых и средневолокнистых сортов хлопчатника, сроки посева, рост и развитие, нормы минеральных удобрений.*

**Annotation.** *In the conditions of pasture soils of our republic, when sowing medium- and fine-fiber cotton varieties at different times, the resistance of cotton varieties to various negative extreme soil and climatic conditions and their influence during the growing season was studied.*

**Key words:** *creation of fine-fiber and medium-fiber cotton varieties, sowing dates, growth and development, norms of mineral fertilizers.*

### KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda mavjud er, suv va tabiiy resurslardan tejamli, oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jahon andozalari talabiga to'liq javob beradigan yuqori sifatli, raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga erishishda, ayniqsa, paxtachilik sohasi alohida o'rin egallaydi. Fo'zaning ingichka tolali navlarini Surxondaryo viloyat tuproq-iqlim, sharoitlarini hisobga olgan holda parvarishlash agrotadbirlar tizimini olib borish va ekish muddatlari va mineral o'g'itlar me'yorlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb hisolanadi.

Yaratilayotgan har bir g'o'za navi, ayniqsa yangi yaratilgan o'rta va ingichka tolali g'o'zalar o'ziga hos agrotexnologiyani talab qiladiki, g'o'za navlarini joylashtirishda Respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ularning agrotexnikasini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bunda, agrotexnologiyaning asosiy tadbirlaridan bo'lgan g'o'zani mineral o'g'itlardan samarali foydalanish uchun sug'orish tartiblariga va ko'chat qalinligiga va tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, ularni ekish muddatlarining rivojlanish fazalarida

turli stress holatlarga duch kelishini inobotga olgan holda har xil muddatlarda ekilgan g'ozani mineral oziqlantirishning g'ozani o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rganish yanada dolzarbdir.

Bu borada Surxondaryo viloyatining o'tloqlashib borayotgan taqir tuproqlari sharoitida yangi yaratilgan o'rta va ingichka tolali g'oz navlarini turli muddatlarda ekib parvarishlash jarayonida uchraydigan tuproq va iqlimda uchraydigan ekstremal holatlarda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yor va muddatlarning tuproq unumdorligiga hamda o'rta va ingichka tolali g'oz navlarining o'sib, rivojlanishi hamda hosildorligiga ta'sirlarini tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlarining natijalariga ko'ra, o'simliklarni oziqlantirish turi va me'yorlari chigitning unib chiqish quvvati va unuvchanligiga turlicha ta'sir etadi, degan xulosaga kelgan. G'ozaga beriladigan oziqalar faqat bir xilda (ma'dan holda) takrorlanaversa yildan-yilga chigit sifati pasayib boradi.

Bu sohada keyingi yillarda ham ilmiy izlanishlar davom ettdirildiki, chigitning unuvchanligiga nafaqat o'g'it me'yorlari qolaversa barcha agrotexnik tadbirlarning ta'siri borligi aniqlandi.

Bizning izlanishlarimizda chigitning unib chiqish dinamikasi va keyingi rivojlanishlariga uni ekish muddatlarining ta'siri aniqlandi. Izlanishlarimizda yangi o'rta va ingichka tolali g'oz navlarini turli muddatlarda ekib, shu muddatlarga mutonosib ravshda mineral oziqlantirish me'yorlarining g'oz ni hollarining unib chiqish dinamikasiga ta'siri ham aniqlandi.

O'tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlar sharoitida ingichka va o'rta tolali g'oz navlarini 20.03, 5.04 va 20.04 muddatlarda ekib uni mavsumiy mineral oziqlantirishning chigitning unib chiqish dinamikasiga ta'siri keltirilgan.

**G'oz navlarining unib chiqish dinamikasi, %.**  
**(birinchi ekish muddati, 20-25.03.2023) 4.1.1.-jadval**

Tajriba	Kuzatuv muddatlari, kun				
	28.03	30.03	2.04	4.04	5.04
Buxoro-102	13	21	48	60	83,0
Buxoro-102	12	20	50	58	83,3
Sherabod-SHN	13	22	49	58	84,5
Sherabod-SHN	15	21	50	60	83,9
Termiz-202	14	23	50	61	84,5
Termiz-202	13	24	51	60	83,7
SP-1607	15	23	52	61	84,9
SP-1607	15	24	50	63	84,2

**G'oz navlarining unib chiqish dinamikasi, %.**  
**(ikkinchi ekish muddati, 5-10.04.2023)**

Tajriba	Kuzatuv muddatlari, kun				
	8.04	10.04	12.04	14.04	15.04
Buxoro-102	15	32	50	67	84,3

Buxoro-102	17	32	51	69	84,6
Sherabod-SHN	16	31	52	68	84,5
Sherabod-SHN	16	33	50	68	85,0
Termiz-202	17	33	53	72	84,9
Termiz-202	18	35	50	71	86,0
SP-1607	18	36	52	72	86,2
SP-1607	18	35	54	73	87,0

**G‘o‘za navlarining unib chiqish dinamikasi, %.**  
**(uchunchi ekish muddati, 20-25.04.2023)**

Tajriba	Kuzatuv muddatlari, kun				
	22.04	24.04	26.04	27.04	28.04
Buxoro-102	16	33	51	65	83,3
Buxoro-102	17	35	50	66	84,2
Sherabod-SHN	16	33	51	67	84,8
Sherabod-SHN	18	36	52	68	85,9
Termiz-202	17	34	54	70	86,8
Termiz-202	18	37	53	71	85,4
SP-1607	18	38	53	70	86,9
SP-1607	20	37	55	73	87,5

Ekish muddatlarining nihollar unib chiqish dinamikasiga ta’siri 2023 yila ekilgan g‘o‘za navlarining ekilgan muddatlariga kura o‘ziga xos bo‘ldi.

Uchta muddatda ekilgan g‘o‘za navlarining ekish muddatlariga ko‘ra unib chiqish dinamikasi tuproq va iqlimning ma’lum muddatlar orasidagi o‘ziga xosligi va navlarning biologik xususiyatlariga ko‘ra turlicha bo‘lganligi kuzatildi. Ta’kidlash mumkinki navlarning alohida biologik xususiyatlariga ko‘ra ingichka tolali g‘o‘za navlarining unib chikishi va uning dinamikasi o‘rta tolali g‘o‘za navlaridan birmuncha farq qildi. Bu holat uchala ekish muddatlarida ham kuzatildi. Olib borilgan tajribada g‘o‘za navlarining ekilgan muddatlariga ko‘ra unib chiqishi va uning dinamikasi tuproq va havo haroritaning o‘zgarishiga ko‘ra turlicha bo‘lganligi kuzatildi. Tajribada g‘o‘za navlari 5.04 sanada ekilgan variantlarda unib chiqishning boshlanishi va kuzatuv davrlaridagi dinamikasi eng yuqori bo‘lganligi aniqlandi va to‘liq unib chiqish davri boshqa muddatlarda ekilgan g‘o‘za navlaridan 5-6 kunga 5-10%ga ilgari bo‘lganligi aniqlandi.

**Xulosa qilib shuni aytish kerakki.** Respublikamizda o‘tloqlashib borayotgan taqir tuproqlar sharoitida o‘rta va ingichka tolali g‘o‘za navlarini turli muddatlarda ekish g‘o‘za navlarining tuproq va iqlimning har xil salbiy ekstremal sharoitlariga bardoshlilikini va ularning o‘suv davridagi ta’sirlari o‘rganildi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Namozov Sh. “G‘o‘zaning Jarqo‘rg‘on navi” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali 2-son Toshkent 2016. B. 31.
2. Rajabov T.Ya. “Qashqadaryo viloyati sharoitida “Porloq-2” g‘o‘za navini parvarishlash” // Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining “G‘o‘za seleksiyasi, urug‘chiligi va etishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb

muammolari hamda uni rivojlantirish istiqbollari” nomli Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari to‘plami. Toshkent-2017. B. 377-380.

3. Sattorov J.S. “Dunyoda va O‘zbekistonda o‘g‘it qo‘llashning buguni va ertasi” // Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy–tadqiqot institutining “O‘zbekiston paxtachiligini rivojlantirish istiqbollari” nomli Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari to‘plami II-qism. Toshkent-2014. B. 8-13.

4. Jumaev Sh. “Samarqand viloyatining tipik, o‘tloqi-bo‘z tuproqlarini kaliy bilan ta‘minlanganligi va kaliyli o‘g‘itlarni paxtachilikdagi samaradorligi” // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnalining Agro ilm ilmiy ilovasi №4 (36)-son, Toshkent-2015. B. 15-16.